

GLOBAL OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY HOLATI.

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna
Xamdamova Nasiba Ablakulovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida assistentlari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon mamlakatlari Oziq-ovqat va sog'lom oziqlanish xavfsizligi darajasini oshirish uchun jamoatchilikni keng jalb qilgan holda sog'lom ovqatlanish va oziqlanish tamoyillari, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko'rsatkichlari va ularga rioya etish amaliyotlarini targ'ib qilish. Aholining barcha qatlamini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ijtimoiy himoyaning milliy tizimlarini takomillashtirish haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Oziq-ovqat xavfsizligi, sog'lom ovqatlanish, oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanish.*

Аннотация: *В данной статье страны мира пропагандируют принципы здорового питания и питания, показателей безопасности пищевых продуктов и практики их соблюдения с участием общественности с целью повышения уровня безопасности пищевых продуктов и здорового питания. Приведена аналитическая информация по совершенствованию национальных систем социальной защиты в целях обеспечения достаточным количеством продуктов питания всех слоев населения.*

Ключевые слова: *Безопасность пищевых продуктов, здоровое питание, обеспечение безопасности пищевых продуктов.*

Abstract: *In this article, the world countries promote the principles of healthy eating and nutrition, food safety indicators, and compliance practices with the public involvement in order to increase the level of food and healthy nutrition safety. Analytical information on improving the national systems of social protection in order to provide sufficient food products to all strata of the population is provided.*

Key words: *Food safety, healthy eating, ensuring food safety.*

Global oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi.

Jahon aholisining farovonligi va kelajagiga xizmat qiluvchi mana shunday nufuzli tashkilot bu boradagi nuqtayi nazarlarni yangilash g'oyasini ilgari surmoqda bugungi

kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Noz-ne'matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o'rmonlar, biologik xilmaxillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, yer unumdorligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayotir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda.

Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini yetkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi.

Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo'l urildi. Ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kampaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmaning Atrof-muhit bo'yicha tashkiloti(YUNEP) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,3 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuborilar ekan.(Bunga qaysidir ma'noda o'zimiz ham to'ylarimizdagi isrofgarchiliklar orqali "hissa" qo'shmoqdamiz. Bejizga bunday tadbirlarni ixchamlashtirish bo'yicha ishlar olib borilmayapti). Ne'matlarning bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun birinchi navbatda ularni saqlash sharoitlarini o'zgartirish taklif etilyapti.

Oziq-ovqat xavfsizligi - aholining barcha qatlamlarini sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste'mol ehtiyojlarini to'liq qoplash, xavfsizlik ko'rsatkich me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash, yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi davlatning iqtisodiy holati.

Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- oziq-ovqat xavfsizligi sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- asosiy turdagi qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, xom-ashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;
- chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;

- aholini barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish.

Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ichki va tashqi omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ichki omillari hisoblanadi:

- qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda foydalaniladigan yer va suv resurslarining hajmi, sifati va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari;

- oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, saqlash va sotish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi;

- ichki va tashqi bozorlarda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi;

- milliy oziq-ovqat sanoati salohiyatining rivojlanganlik holati;

- oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksportining nisbati;

- aholi keng qatlamlarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini mahsulot turlari, hajmi va sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash darajasi;

- aholi daromadlariga mos holda iste'mol tovarlari narxlarining o'sish sur'ati;

- navi va sifati kafolatlangan, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan mahalliy urug' va ko'chat ta'minotining barqarorligi;

- chorva hayvonlarining zotini yaxshilash va mahalliy zotlarning mahsuldorligini oshirish bo'yicha seleksiya va naslchilik ishlarining tizimli tashkil etilganligi;

- ichki bozor konyunkturasi talabini muntazam o'rganib borish asosida talab va taklifning muvofiqlashtirish tizimining mavjudligi;

- qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga talab etiladigan moddiy-texnik resurslar ta'minotining barqarorligi hamda mahsulotlar baholari va ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatiladigan xizmatlar narxlarining o'sish darajasining mutanosibligi;

- hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda infratuzilmani rivojlanish darajasi va uni rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi;

- tabiiy yaylovlarning hosildorligi va ulardan samarali foydalanish tizimining yo'lga qo'yilganligi;

- ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun aylanma mablag'larning yetishmasligi va bank kreditlarining yuqoriligi;

- xom-ashyo yetkazib beruvchi va qayta ishlovchilar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning bozor mexanizmlariga muvofiqligi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning tashqi omillari hisoblanadi:

- oziq-ovqat mahsulotlariga dunyo bo'yicha narxni ortib borishi va rivojlanayotgan davlatlar talabining ko'payishi;
- iqlim sharoitlarining o'zgarishi;
- bioyoqilg'i ishlatish ko'lamining ko'payishi;
- geosiyosiy omillar.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturi tasdiqlangan bo'lib bu boraqda olib boriladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son farmoniga asosan Respublikamizda so'ngi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi.

Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasining maqsadli indikatoriga muvofiq asosiy turdagi oziq-ovqat ekinlari hosildorligini 2030-yilgacha oshirish bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quyidagi jadval ma'lumotlariga asosan belgilangan.

Asosiy turdagi oziq-ovqat ekinlari hosildorligi

T/r	<u>Indikatorlar</u>	<u>O'lchov birligi</u>	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.	2028-y.	2030-y.
1.	<u>Bug'doy (sug'oriladigan maydonda)</u>	<u>ts/ga</u>	67,0	73,0	75,0	80,0	90,0	100,0
2.	<u>Sholi</u>	<u>ts/ga</u>	46,2	47,2	48,5	49,5	52,5	55,0
3.	<u>Kartoshka</u>	<u>ts/ga</u>	207,8	210,5	212,2	213,9	217,4	222,0
4.	<u>Sabzavotlar</u>	<u>ts/ga</u>	212,1	231,0	241,5	252,0	274,5	295,0
5.	<u>Poliz mahsulotlari</u>	<u>ts/ga</u>	152,1	159,7	163,6	167,7	180,6	190,0
6.	<u>Meva va rezavorlar</u>	<u>ts/ga</u>	94,2	104,2	109,4	116,4	130,5	150,0
7.	<u>Uzum</u>	<u>ts/ga</u>	117,5	125,2	131,8	137,8	160,0	180,0
8.	<u>Moyli ekinlar</u>	<u>ts/ga</u>	15,8	16,2	17,0	18,5	20,0	22,0

Qishloq xo'aligidagi asosiy turdagi oziq-ovqat ekinlarining hosildorligini oshirish bo'yicha tahlil qilganimizda bug'doy 2023-yilda 67 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 100 ts/ga oshirish belgilab olingan. Shuningdek sholi 2023-yilda 46.2 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 55 ts/ga oshirish, kartoshka 2023-yilda 207,8 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 222 ts/ga oshirish, sabzavot 2023-yilda 212,1 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 295 ts/ga oshirish, poliz mahsulotlari 2023-yilda 152,1 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 190 ts/ga

oshirish, meva va rezovorlar 2023-yilda 94,2 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 150 ts/ga oshirish, uzum 2023-yilda 117,5 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 180 ts/ga oshirish, moyli ekinlar 2023-yilda 15,8 ts/ga dan 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 22 ts/ga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasining maqsadli indikatori etib belgilab olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Olim, M., & Baxtiyorovna, U. O. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 758-766.
2. Olim, M., & Bakhtiyorovna, U. A. (2023). THE IMPORTANCE OF SMALL INDUSTRY ZONES IN THE DEVELOPMENT OF REGIONS. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 218-224.
3. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.
4. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
5. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIVAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.